

“BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI”*Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti**Logopediya yo 'nalishi 2-kurs talabasi****Ibragimova Durdona Dilmurod qizi****Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti**Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi****Azimova Dilnoza Sherzodvna***

Annotatsiya: Ushbu maqolada bola shaxsini rivojlantirishning psixologik va pedagogik asoslari yoritilgan. Shaxsning shakllanish jarayoni biologik, psixologik hamda ijtimoiy omillar o'zaro ta'sirida kechishi ta'kidlanadi. Tadqiqotda Piaget, Vygotskiy, Erikson, Bronfenbrenner va Bowlby kabi olimlarning asosiy nazariy yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarning turlari, ularning afzalliklari hamda bola shaxsini o'rganishda kuzatish, eksperiment va anketa metodlarining ahamiyati ko'rsatib beriladi. Maqola bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida oila, ta'lim muassasasi va ijtimoiy muhitning o'zaro aloqasiga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: bola shaxsi, rivojlanish, psixologik-pedagogik asoslar, shaxsiy yondashuv, pedagogik texnologiyalar, kuzatish metodi, eksperiment, ijtimoiy muhit.

Аннотация: В данной статье освещаются психолого-педагогические основы развития личности ребенка. Подчеркивается, что процесс формирования личности происходит во взаимодействии биологических, психологических и социальных факторов. В исследовании анализируются ключевые теоретические подходы таких ученых, как Пиаже, Выготский, Эриксон, Бронфенбреннер и Боулби. Также показаны виды педагогических технологий, их преимущества и значение методов наблюдения, эксперимента и анкетирования в изучении личности ребенка. Статья фокусирует внимание на взаимосвязи семьи, образовательного учреждения и социальной среды во всестороннем развитии личности ребенка.

Ключевые слова: личность ребенка, развитие, психолого-педагогические основы, личностный подход, педагогические технологии, метод наблюдения, эксперимент, социальная среда.

Abstract: This article covers the psychological and pedagogical foundations of child personality development. It is emphasized that the process of personality formation occurs through the interaction of biological, psychological, and social factors. The study analyzes the key theoretical approaches of scholars such as Piaget, Vygotsky, Erikson, Bronfenbrenner, and Bowlby. Furthermore, the types of

pedagogical technologies, their advantages, and the significance of observation, experiment, and survey methods in studying a child's personality are demonstrated. The article focuses attention on the interconnectedness of family, educational institutions, and the social environment in the comprehensive development of a child's personality.

Keywords: child personality, development, psychological and pedagogical foundations, personal approach, pedagogical technologies, observation method, experiment, social environment.

Kirish:

Asosiy nazariy yondashuvlar:

- biologik (maturatsion)yondashuv
- xulq-atvor yon
- psixanalitik yon
- kognitiv rivojlanish (Piaget)
- sotsiokultural nazariya (Vygotskiy)
- psixosotsial rivojlanish (Erikson)
- bioekologik model (Bronfenbrenner)
- attachment (Bowlby)

Shaxs tushunchasi-individual shaxsiyat,uning ijtimoiy faoliyati,qobil yatlari,tasavvurlar va qadriyatlar majmuasi.

Bola shaxsini rivojlanishiga esa biologik,psixologik va ijtimoiy omillar o'zaro ta'sirida kechadigan murakkab dinamik jarayon.

Shaxs va shaxs rivojlanish tushunchasi:

Shaxs:jamiyat bilan munosabatda bo'lgan ongli individual.

Shaxsiyat-insonning barqaror xulq-atvor,qadriyat va identifikatsiya tizimi.

Rivojlanish yoshga bog'liq o'zgarishlar,ularning sofati va miqdori jihatdan transformatsiyasi.

Pedagogik texnologiyalar turlari:

- o'yinli texnologiyalar;
- muammosiz o'qitish;
- tabaqalashtirilgan o'qitish;

Pedagogik texnologiyalar turlari

- individualizatsiyalash;
- programmashtirilgan ta'lim;
- kompyuter asosidagi o'qitish;

Pedagogik texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari:

- mustaqil fikrlash va ijodkorlik;
- interaktiv va qiziqarli ta'lim;
- o'qituvchilarning mahorati;

Tarbiya, muhitning roli: pedagogik natija; diagnostika, baholash, amaliy tavsiyalar, xulosa.

Kuzatish metodining ijobiy tomoni shundaki, eksperimental ravishda o'rganish imkoni bo'lmagan faoliyatni analiz qilish, o'quvchi xulq-atvorini tabiiy sharoitda o'rganish imkoniyati mavjud.

Kuzatish pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan asosiy metodlardan biridir.

Kuzatish intervallari yoshga bog'liq bo'lishi kerak.

Tug'ilgandan 2—3 oygacha — har kuni;

2—3 oydan 1 yoshgacha — har hafta;

Ilk bolalik, ya'ni 1—3 yoshda — har oyda;

3 yoshdan 6—7 yoshgacha — yarim yilda 1 marta;

7—11 yoshda — 1 yilda 1 marta kuzatish o'tkazilishi zarur.

Eksperiment metodi: eksperiment metodi tabiiy va laboratoriya eksperimenti turlariga bo'linadi.

Bu metod psixik holatni ta'riflashgagina emas, balki ularni tushuntirib berishga ham imkon beradi.

Kuzatishdan farqli o'laroq, psixologik eksperiment tadqiqotchi-ning sinalayotgan faoliyatga faol aralashuvi mumkinligini nazarda tutadi.

Jumladan, psixologik fakt aniq namoyon bo'lishiga, uning tadqiqotchi xohlagan yo'nalish bo'yicha o'zgartirilishiga, har jihatdan tadqiq qilish uchun bir necha martalab takrorlanishiga imkon beradigan shart-sharoitni yaratadi.

Laboratoriya eksperimentining xarakterli belgisi faqat uning laboratoriya sharoitlarida maxsus psixologik asbob-uskunalar yordamida o'tkazishlarida va sinaluvchining xatti-harakatlari yo'l-yo'riqqa binoan sodir bo'lishi bilangina emas, balki sinalayotganligini biladigan sinaluvchi (garchi, odatda, sinalayotgan kishi eksperimentning mohiyati nimadan iboratligini, konkret

nimani va nima maqsadda tadqiq qilinayotganligini bilmasa ham) kishining munosabati bilan ham belgilanadi.

Laboratoriya eksperimenti yordamida diqqatning xossalarini, idrok, xotira va boshqalarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish mumkin.

Hozirgi paytda laboratoriya eksperimentini ko'pincha shunday tarzda o'tkazishdiki, unda odam odatdagi sharoitlarda bajarishi mum-

kin bo'lgan faoliyatning ba'zi psixologik jihatlari modellashtirilib qo'yiladi.

Anketa — savollar yordamida psixologik axborot to'plashning metodik usulidir.

Bunda savollar mantiqan bir-biri bilan bog'langan bo'lib, tadqiqotning maqsadiga mos keladi.

Anketa yordamida o'qituvchi o'quvchilar shaxsiy sifatlarini aniqlash uchun material to'playdi.

Taklif etiladigan savollarga qarab, anketalar mazmun, funksiyasi, shakli bo'yicha turli xil bo'lishi mumkin.

Mazmun bo'yicha anketa:

1. Faktlar («Sening bo'sh vaqtingdagi mashg'uloting, «Uy joy sharoitingni ta'rifla»).

2. Atrofdagi kishilar, hodisalar xarakteristikasini («O'quv-ishlab chiqarish korxonasida ish formasi boshqacha bolishi kerak deb hisoblaysanmi?», «Ko'pchilik bolalar o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solmay o'qishlarining sababi nimada deb o'ylaysan?»).

3. O'quvchining niyatlarini ifodalashi mumkin («Oliy o'quv yurtiga kirasanmi?», «Yozgi oromgohga borasanmi?»).

Savollar bajaradigan funksiyasiga ko'ra anketa o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) Filtrlovchi-savollar. M.: agar o'qituvchini oliygohga kirishni

xohlovchilar qiziqтира, anketada quyidagicha savollar taklif etiladi: «Sening yoqtiradigan predmeting?». Bunga faqat oliygohga kirmoqchi bo'lgan o'quvchilargina javob beradilar.

b) Tekshiruvchi yoki nazorat qiluvchi savollar. Ularning asosiy funksiyasi ma'lumotning to'g'riligini tekshirish.

Xulosa:

Kuzatuvlar asosida shuni aytish mumkinki, bola shaxsining rivojlanishi — bu biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o'zaro ta'sirida kechadigan murakkab va uzluksiz jarayondir. Har bir yosh bosqichida bola shaxsiyati, xulq-atvori, qiziqishlari va ijtimoiy munosabatlari o'ziga xos tarzda shakllanadi. Shuning uchun pedagog va psixologlar bolaning individual xususiyatlarini chuqur o'rganib, unga mos yondashuv va metodlardan foydalanishlari zarur.

Kuzatish metodining qo'llanilishi natijasida bolalarning tabiiy sharoitdagi xulq-atvori, hissiy reaksiyalari va ijtimoiy munosabatlari haqida muhim ma'lumotlar olindi. Bu esa o'qituvchilarga ularning psixologik holatini to'g'ri baholash, individual yondashuvni tanlash va ta'lim-tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishda katta yordam beradi.

Umuman olganda, bolaning shaxs sifatida kamol topishi uchun oila, ta'lim muassasasi va ijtimoiy muhit o'rtasida uzviy hamkorlik zarur. Pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlash, kuzatuv va eksperiment metodlaridan samarali foydalanish bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy L.S. Psixologik rivojlanish nazariyasi. – Moskva: Pedagogika, 1984.
2. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1969.
3. Erikson E.H. Childhood and Society. – New York: Norton, 1950.

4. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1979.
5. Bowlby J. Attachment and Loss. – London: Hogarth Press, 1969.
6. G‘oziev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
7. Yo‘ldoshev J.G‘., Hasanboeva O. Pedagogika fanining asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2018.
8. Xolmatova M., Mamatqulova N. Bola psixologiyasi va pedagogikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
9. Karimova V.M. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017.
10. Qodirova F., To‘xtayeva Z. Ilk yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019.